

UMUMTA'LIM FANLARINI BILISH DARAJASINI BAHOLASHNING MILLIY TEST TIZIMI DOIRASIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANIDAN TALABGORLARNING BILIM DARAJASINI ANIQLASH VA SERTIFIKATLASH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI TARKIBIDAGI YOZMA ISH (ESSE)NI BAHOLASH MEZONI

Quyidagi hollarda esse tekshirilmaydi va 2 ball bilan baholanadi:

- esse yozilgan, lekin mavzuga mos bo'lmasa;
- essening hajmi 100 ta so'zdan kam bo'lsa;
- esse boshqa manbadan ko'chirilgan bo'lsa.

Esse yozilmagan bo'lsa, 0 ball beriladi.

	2 ball	1,5 ball	1 ball	0,5 ball	0 ball
TOPSHIRIQ TALABLARINING BAJARILGANLIGI					
1	Esse to'liq publitsistik uslubda yozilgan.	Ayrim o'rinlarda publitsistik uslubdan chekinilgan.	Esse qisman publitsistik uslubda yozilgan.	Esse to'liq badiiy uslubida yozilgan.	Esse to'liq so'zlashuv uslubida yozilgan.
2	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash hamda talabgoming shaxsiy qarashlari to'la yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash yoritilgan, talabgoming shaxsiy fikri yoritilmagan.	Vaziyat yuzasidan qarashlarning bittasi to'la yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan qarashlarning faqat bittasi qisman yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan qarashlar yoritilmagan.
3	Har ikkala qarash dalillar bilan asoslangan.	Faqat bitta qarash dalillangan.	Har ikkala qarash uchun keltirilgan ayrim dalillar vaziyatga mos emas.	Har ikkala qarash uchun keltirilgan dalillar vaziyatga mos emas.	Har ikkala qarash dalillanmagan.
MATN YAXLITLIGI (NUTQ KOMPOZITSIYASI, NUTQNING MANTIQIYLIGI)					
4	Kirish, asosiy qism va xulosa to'la yoritib berilgan.	Esse qismlaridan faqat ikkitasi to'la yoritilgan.	Esse qismlaridan ikkitasi yuza yoritilgan.	Esse qismlaridan faqat bittasi to'la yoritilgan.	Esse qismlaridan faqat bittasi yuza yoritilgan.
5	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da xatolik kuzatilmagan. Esse xatboshilarga to'g'ri ajratilgan.	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki essen xatboshilarga ajratishda (1-2 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki essen xatboshilarga ajratishda (3-4 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki essen xatboshilarga ajratishda (5-6 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da 7 va undan ko'p o'rinda xatolikka yo'l qo'yilgan. Esse xatboshilarga umuman ajratilmagan.
6	Mantiqiy-mazmuniy izchillikka to'liq rioya qilingan. Fikrlar takrori kuzatilmagan.	Fikrlar takrori uchragan (1-2 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilmagan.	Fikrlar takrori uchragan (3-4 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.	Fikrlar takrori uchragan (5-6 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.	Fikrlar takrori 7 va undan ortiq o'rinda uchragan, mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.
SAVODXONLIK (NUTQNING TO'G'RILIGI)					
7	Imlo bilan bog'liq xatolik umuman uchramagan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 3-4 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 5-6 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.
8	Punktuatsion xatolik umuman uchramagan.	Punktuatsion xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Punktuatsion xatolik 3-4 o'rinda uchragan.	Punktuatsion xatolik 5-6 o'rinda uchragan.	Punktuatsion xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.
TIL BIRLIKLARI USLUBIYATI (NUTQNING JO'YALILIGI)					
9	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik umuman uchramagan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 3-4 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 5-6 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.
10*	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilmagan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 1-2 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 3-4 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 5-6 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 7 va undan ko'p o'rinda kuzatilgan.
LUG'AT BOYLIGI (NUTQNING BOYLIGI, IFODALILIGI VA SOFLIGI)					
11	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan unumli foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan ayrim o'rinlarda foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan ayrim o'rinlarda foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan noo'rin foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan foydalanilmagan.
12	Noo'rin qo'llangan shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning so'zlar uchramaydi.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 1-2 o'rinda uchragan, ammo uslubiy g'alizlik yuzaga kelmagan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 3-4 o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 5-6 o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 7 va undan ko'p o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.
JAMI: 24 BALL					

* So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatoliklar:

- a) so'zni noto'g'ri qo'llash;
- b) so'zlam noo'rin takrorlash;
- c) so'zni ortiqcha qo'llash;
- d) so'zni tushirib qoldirish;
- e) bog'lovchi vositalar, kiritmalar bilan bog'liq xatolik.

ESSE YOZILISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

1. Fikr-mulohazalaringizni publitsistik uslubda bayon qiling.
2. Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalang.
3. Berilgan vaziyat matnini aynan ko'chirmang.
4. Esse uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim: kirish, asosiy qism va xulosa.
5. Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo'yilmaydi.

DIQQAT!

1. Esse quyidagi hollarda tekshirilmaydi va jami 2 ball bilan baholanadi:
 - esse yozilgan, lekin mavzuga mos bo'lmasa;
 - esse ko'chirilgan bo'lsa;
 - esse matni 100 ta so'zdan kam bo'lsa.
2. Esse quyidagi hollarda tekshirilmaydi va jami 0 ball bilan baholanadi:
 - faqat kirish qismi yozilgan, essening boshqa qismlari yozilmagan bo'lsa;
 - esse matni to'liq kirill alifbosida yozilgan bo'lsa;
 - javoblar varaqasining yozma ish yozish uchun belgilangan qismi ochiq qoldirilgan bo'lsa (esse yozilmagan bo'lsa).